

GIMNASTIKA SPORT ANJOMLARI VA JIHOZLARI

USLUBIY QO'LLANMA



Toshkent – 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TURIZM VA SPORT VAZIRLIGI**

**JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO'YICHA
MUTAXASSISLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**SPORT O'YINLARI BO'YICHA
RESPUBLIKA OLIV SPORT MAHORATI MAKTABI**

A. A. Isoyev.

**GIMNASTIKA SPORT
ANJOMLARI
VA JIHOZLARI**

TOSHKENT - 2021

UDK 796.022

KBK 75

I - 81

Isoyev A. A.

Gimnastika sport anjomlari va jihozlari [Matn] : uslubiy qo'llanma /
A. A. Isoyev.-Toshkent: "Umid Design", 2021.-40 b.

Annotatsiya

Ushbu qo'llanma gimnastika sport anjomlari va jihozlariga bag'ishlangan bo'lib, talaba-yoshlarga, o'smirlarga va yosh jismoniy tarbiya o'qituvchi murabbiylar uchun yaratildi. Bunday qo'llanma bizning mamlakatimizda birinchi bor nashr qilinmoqda. Qadrli talaba-yoshlar, bu sizlar uchun gimnastika sport anjomlari va jihozlari to'g'risida to'liq ma'lumot olishingiz uchun xizmat qiladi. Qo'llanmadan siz ko'plab foydali va qiziqarli ma'lumotlarni olishingiz mumkin. U sizga gimnastika sport anjomlari va jihozlarining o'lchamlari, ko'rinishi, to'g'ri qo'llanilishi haqida ma'lumot olishingiz mumkin.

Taqrizchilar:

"Jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati" kafedrasni

dotsent v.b., PhD

B. Ne'matov.

Sport o'yinlari bo'yicha ROSMM

yo'riqchi-uslubchisi:

S. Boyxo'jayev.

Mazkur uslubiy qo'llanma Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini ilmiy metodik ta'minlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashi yig'ilishida ko'rib chiqilib chop etishga ruxsat etilgan. (2019-yil 4-iyun, 6 – son)

*“Gimnastika odamni yanada jasurroq, yanada
qo‘rmasroq, yanada aqliroq, yanada uquvliroq,
yanada kuchliroq, yanada chaqqonroq,
yanada epchilroq va yanada
Harakatchanroq qilishi kerak”.*
Franchesko Amoros

KIRISH

Keyingi yillarda Respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan xayrlı ishlardan biri har tomonlama yetuk barkamol va sog‘lom avlodni voyaga yetkazish dasturini amalga oshirish maqsadida «Talaba – sport» tashkiloti, «Yoshlar ittifoqi» yoshlar harakati va ommaviy axborot vositalarining hissasi katta bo‘lmokda.

Ushbu qo‘llanma gimnastika sport anjomlari va jihozlariga bag‘ishlangan bo‘lib, talaba-yoshlarga, o‘smlargaga va yosh jismoniy tarbiya o‘qituvchi murabbiylar uchun yaratildi. Bunday qo‘llanma bizning mamlakatimizda birinchi bor nashr qilinmoqda. Qadrli talaba-yoshlar, bu sizlar uchun gimnastika sport anjomlari va jihozlari to‘g‘risida to‘liq ma’lumot olishingiz uchun xizmat qiladi. Qo‘llanmadan siz ko‘plab foydali va qiziqarli ma’lumotlarni olishingiz mumkin. U sizga gimnastika sport anjomlari va jihozlarining o‘lchamlari, ko‘rinishi, to‘g‘ri qo‘llanilishi haqida ma’lumot beradi.

GIMNASTIKA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISH JOYLARI VA ULARNING JIHOZLANISHI

Gimnastikadan o‘quv mashqlanish mashg‘ulotlari odatda maxsus jihozlangan gimnastika zallarida yoki ochiq maydonchalarda (gimnastika shaharchalarida) o‘tkaziladi.

Sport maktablari va oliy sport mahorati maktablari uchun:

Zallarda sport anjomlari uchun qo‘srimcha xonalar, yo‘riqchilar uchun, yechinib-kiyinadigan xonalar (erkak va ayollar uchun alohida), shuningdek dushxonalar va hojatxonalar bo‘lishi kerak. Ular umumiy yo‘lakka chiqmasdan kirish qulay bo‘lgan joyda bo‘lishi lozim. Kiyinib-yechinish xonalari shug‘ullanuvchilarning narsalari saqlanadigan ikki qavatli jovonlar ($0,3 \times 0,5 \times 0,8$ m) va o‘rindiqlar bilan jihozlangan maktablardagi mavjud majlis zallaridan ham quyi sinf o‘quvchilari bilan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari o‘tkazishda foydalanish mumkin.

Oliy o‘quv yurtlari uchun:

1-jadval

№	Zalning nomi	O‘Ichami (m)			Bir yo‘la nechta kishi shug‘ullana olish imkoniyati
		Bo‘yi	Eni	Baland- ligi	
1	Kichik gimnastika zali.	18	9	5,54	40 tagacha
2	Kichik sport-gimnastika zali.	24	12	6,0	60 tagacha

Klublar uchun 60-65 kishilik kichik (24x12x12 m) yoki o‘rta (30x15x6,5 m.) sport gimnastika zallari mo‘ljallangan bo‘ladi.

Zallardan foydalanishda zal va yordamchi xonalar supirib-sidirish uchun qulay bo‘lishi; devorlarda 1,75 m. balandlikkacha turtib chiqqan, qing‘ir-qiyshiq joylar bo‘lmasligi; ular ochiq rangli moy bo‘yoqqa bo‘yalgan yoki ustiga kertik, qoplam yoki turtib chiqqan joylari bo‘lmasligi yaxlit panel qoqilgan bo‘lishi eng muhim gigienik talablardir.

Shift ham ochiq rangli moy bo‘yoqqa bo‘yaladi. Pol ham kema palubasi singari tep-tekis, yoriq joylarsiz qoqilgan bo‘lishi kerak. Isitish asboblari ham turtib chiqmaydigan qilib, devor sathiga tekislab panjara bilan qoplanadi. Odatda, gimnastika mashg‘uloti o‘tkaziladigan zaldagi haroratni doimiy 18-20° C. saqlab turiladi. Havoning namligi esa 50-60% atrofida bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ventilyatsiyaning havo bilan bir soatda uch marta al mashib ulgurishini ta‘minlaydigan tabiiysi ham, sun’ysi ham (havo oqib kirib so‘rib chiqaradigani ham isitib turadigani ham) bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Pol sathining nur tushadigan yuzasi 1,5 qismidan kam bo‘lmasligi kerak. Derazalar poldan 1,5 m. balandda o‘rnatalishi va elektr nuri mayin, yetarli (pol yaqinida 150 lyuks yoritilgan) bo‘lishiga erishish lozim.

Yechinib-kiyinish xonalariz zalning yonginasida bo‘ladi. Hamma xonalar muntazam supirilib-sidirilib, yig‘iqoziqilib turilishi kerak (har kuni, har bir mashg‘ulotdan keyin xo‘l latta bilan artiladi va 1-2 haftada bir marta yaxshilab umumiy yig‘iqoziqiladi).

Gimnastikaning asosiy sport va boshqa turlari bilan shug‘ullanish uchun zallarda maxsus jihoz va anjomlar bo‘lishi kerak. Sport anjomlarining miqdori zalda bir yo‘la qancha kishi shug‘ullanishiga qarab

belgilanadi. Bunda mashg‘ulotning mazmuni, shug‘ullanuvchilarning toifasi, kichik guruqlar taxminan qancha bo‘lishi e’tiborga olinadi. (1-rasm).

GIMNASTIKA JIHOZLARI.

Gimnastika devoridan umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarish va tirmashib chiqish uchun qo‘llaniladi. Uning balandligi 288 sm., ustunlarining orasi 100 sm. Gorizantal zinapoyalar (reykalar) ustunlarga parma mix bilan mahkamlanadi. (2-rasm)

Gimnastika narvoni tirmashib chiqish va tirmashib o‘tish mashqlarini bajarish uchun qo‘llaniladi. Uning bo‘yi 5 m, eni 48 sm. zinapoyalarning (reykalarning) diametri 3,5 sm.; reykalar oralig‘i 25 sm. bo‘ladi.

Gimnastika o‘rindig‘i umumrivojlantiruvchi mashqlarni, muvozanat saqlash, tayanish, tirmashib chiqish va shu kabi mashqlarni guruh bo‘lib bajarish uchun, shuningdek shug‘ullanuvchilar dam olishi uchun mo‘ljallangan. Uning bo‘yi 2,70 m., eni 2,20 sm., balandligi 36 sm., qalinligi 40 mm. bo‘ladi. Pastki tomonida boshidan oxirigacha eni 5 santimetrik to‘rt qirrali yog‘och qoqib qo‘yilgan bo‘ladi. Bu esa ag‘darib qo‘yib muvozanat saqlash mashqlarini bajarishda foydalanish imkonini beradi. (3-rasm)

Tirmashib chiqish uchun arqon (yoki langar cho‘pni) shiftdagi to‘sinqarga yoki maxsus tirsaklarga osib qo‘yiladi. Uning yo‘g‘onligi qo‘l ushslash uchun qulay, uzunligi esa 4-6 m. bo‘lishi kerak. Foydalanish oson bo‘lishi uchun har yarim metr oraliqda rangli tasmalar (qiyyiqlar) belgilab qo‘yiladi. (4-rasm).

Halqa odatda maxsus tirsaklarga, maktab zallarida ba’zan shift to‘sinqariga shifti baland zallarda esa portikka osiladi. Ularning osilgan joyi poldan 5,5 m. balandlikda bo‘ladi. Halqalarning o‘zi poldan 2,5 m. balandlikda, ikki halqa orasidagi masofa esa 50 sm. bo‘ladi. Devorga mahkamlanadigan halqalarda mahsus qulf bo‘lib, ana shu qulf yordamida zanjirni devorga qoqilgan qoziqqa mahkamlab qo‘yiladi. Mashg‘ulotlar oldidan halqalar poldan qancha balandligi, ular orasidagi masofa ikkala halqaning baland pastligi, tasmalarning mustahkamligini, shuningdek, arqonlar, qayishlar, to‘qalar hamda halqalarning sirti qay ahvolda ekanligi va boshqalarni tekshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Xalqaning ichki diametri 180 mm., tashqi tomoni 28 mm., bog‘lab turuvchi tasma uzunligi 650 mm., kengligi 30 mm. Halqalar ko‘p qavatlari fanera yoki plastikdan tayyorlanadi va rangsiz lok bilan bo‘yaladi. (5-rasm)

Gimnastika dastakli oti uzunligi 1,58 m., kengligi 33 sm., balandligi 25 sm., (6-rasm)

Oyoq siltash uchun ot. Uning o‘lchamlari ham yuqoridagi otdagi singari bo‘ladi-yu, faqat dastaklari bo‘lmaydi. Ot uzunasiga qo‘yilib, tortkichlar yordamida mahkamlanadi. U uzoqdagi va yaqindagi qismlarga (o‘rtasidan) bo‘lingan bo‘ladi. Otning poldan balandligi 110-150 sm. Ayollar uchun bu jihoz 110 sm. balandlikda ko‘ndalang qo‘yiladi. (7-rasm).

Uloq. 95 sm.dan 135 sm.gacha bo‘lgan balandlikda ko‘ndalang yoki uzunasiga o‘rnataladi. Uzunligi 60 sm., qalinligi 30 sm. uning ustiga charm yoki sun’iy charm qoplangan bo‘ladi.

Jihozlarni ikki kishi mashg‘ulot o‘tkaziladigan joyga olib borib qo‘ysa bo‘ladi. Bunda ulardan biri otning (uloqning oldiga), ikkinchisi orqasiga o‘tib, ikkovi ham oldinga qarab turadi va jihozning tanasiga yaqin joydan oyoqlaridan ushlab ko‘tarib, bir xilda qadam tashlab yuradilar. Jihozni ko‘tarayotganda yoki erga qo‘yayotganda uni bir tomoniga og‘dirib turib, oyoqlarini kerakli o‘lchamlarigacha chiqariladi, so‘ng narigi tomoniga og‘dirib, qolgan oyoqlari chiqariladi. Oyoqlaridagi bo‘yoqlar rangli bo‘yoq bilan belgilangani ma’qul. Mashg‘ulot oldidan jihozning qanchalik mahkam turganligi, qoplamasining butunligi, dastaklarining sirti (kertiklar, magneziy qotib qolgan joylari va hokazolar) tekshirib ko‘riladi. (8-rasm)

Juft xoda: erkaklarning juft xodalari yog‘ochlar uzunligi 350 sm.ga teng tuxumsimon shaklda bo‘lib, yog‘ochlar staminaga mustahkamlab qo‘yilgan vertlyuglar, tirgovichlarga oshiq-moshiq yordamida biriktirilgan bo‘ladi. Yog‘ochlar oralig‘i 42-62 sm. bo‘lib, poldan 115-175 sm. balandlikda o‘rnataladi. Yog‘ochlari o‘rtasida 60 S2 markali diametri 22 mm.li sterjen temir prujina o‘rnataladi. (9-rasm).

Past-baland juft xoda: ayollar uchun mo‘ljallangan juft xodalarning pastki yog‘ochi 130-150 sm., yuqorigi yog‘ochi 190-240 sm. balandda, yog‘ochlar oralig‘i 43-55 sm. bo‘ladi. Xodalar tuxumsimon shaklida bo‘lib, yog‘ochdan tayyorlanadi (oq qayin, yasen, buk) hamda o‘rtasidan metal sterjenli stekloplast o‘tkaziladi. Xodalarning kichik diametri 42 mm., katta diametri esa 48 mm., yog‘ochlar o‘rtacha 135 kg. – 65 mm. yukni ko‘taradi. Xodalar balandligi maxsus moslama bilan boshqariladi. Umumta’lim maktablarida, ko‘lami katta bo‘lmagan musobaqalarda ba’zan eski xildagi ramali juft xodalardan foydalilanadi. Bunday holda juft xodalarning mashq bajarishda xavf tug‘diradigan turtib chiqqan qismlari bo‘lmasligiga e’tibor qaratish kerak. (10-rasm).

Yakka xoda tortqichlar yordamida mustahkamlangan tik tirgovuchlarga gorizontal mahkamlangan, silliqlangan, diametri 28 mm temir tayoqdan iborat. Mashg‘ulotning mazmuniga qarab yakka xodani 120 sm.dan 240 sm.gacha balandlikda o‘rnatsa bo‘ladi. Yangi boshlovchilar bilan mashg‘ulotni devor yoniga o‘rnatiladigan yakka xodada o‘tkazish qulay. (11-rasm).

Yakka xodaning tirgovuchlari aniq vertikal, temir tayog‘i esa gorizontal holatda o‘rnatiladi. Bunda hamma mahkamlagichlari, ayniqsa poldagi ilgaklar mahkam bo‘lishiga e’tibor qaratilishi lozim. Yakka xodani tez o‘rnatish uchun uni erga, tirgovuchlari tagini o‘rnatiladigan joyga to‘g‘rilab, yotqizib qo‘yiladi. Tortqichlari bilan o‘rama sim arqonlarini (tros) tekshirib ko‘rib, ikki kishi uni vertikal holatda ushlab turadi-da boshqa ikki kishi tortqichlarni mahkamlaydi. Bir tomonini to‘g‘rilab olgandan keyin, tirgovuchlar bilan temir tayoqning tik turishini e’tibordan chetda qoldirmay, tutashtiruvchi mufta yordamida ikkinchi tomonidagi tortqichlarini tortiladi. Jihozning kerakli balandligini tezroq aniqlash uchun tirgovuchlarga bo‘yoq bilan belgililar qo‘yiladi. Devor yonidagi yakka xodani o‘rnatish bundan ham oson: devorga mahkamlab qo‘yilgan tirgovuchga qarab, ikkinchi (ko‘chma) tirgovuch holati belgilanadi va tezgina o‘rnatiladi.

Mashg‘ulot oldidan tirgovuchlar qanchalik to‘g‘ri turganligi, troslarning tortilish darajasi, temir tayoq sirti ahvoli tekshirib ko‘riladi. Temir tayoqni mashg‘ulot oldidan soda eritmasi yoki benzinda xo‘llangan latta bilan moyi ketkiziladi, mashg‘ulotdan keyin esa jilvir qog‘oz va sochiqda artib chiqiladi.

Erkin mashqlar maydonchasi (gilami)ning o‘lchami 12x12 m. bo‘lib, gir aylangan oq hoshiyali bo‘ladi. Hoshiya tashqarisida kamida yana 1 m. qo‘srimcha joy qolishi kerak. Elastik to‘sama eng yaxshi qoplama hisoblanadi.

Ko‘prikcha sakrash uchun, yakkacho‘p va juft xodalarda mashq qilish uchun qo‘llaniladi. Uning balandligi 12 sm. eni 60-120 sm. bo‘ladi to‘sab qo‘yiladi. Goho bir qavat ham to‘shaladi. Murakkab ma.

Tramplin (prujinali ko‘prikcha) balandligi 40 sm., bo‘yi 120-130 sm. bo‘ladi. Mashg‘ulot paytida ko‘prikcha yoki tramplin, odatda, oldingi chetini gimnastika to‘sagiga taqab, polda mahkam turadigan qilib rezina yo‘lkaga qo‘yiladi. (12-rasm).

To'shaklar bo'yi 200 sm., eni 100 sm., qalinligi 65-100 sm. bo'lib, erga kelib tushiladigan joyga, odatda, ikki qavat qilib mashqlarni o'rganish paytlarida porolon to'shaklardan foydalaniladi. (13-rasm)

Gimnastika **yakkacho'pi** muvozanat mashqlari bajarish uchun qo'llaniladi. Uning uzunligi 5 m, qalinligi (pastdan yuqoriga) 16 sm., eni 10 sm. sirti tekis va sirg'almaydigan bo'lishi kerak. Yakkacho'p poldan 80 sm. balandda o'rnatiladi. Boshlang'ich o'rgatish, chigil yozish va hokazolar uchun pastroq - 50 sm. balandda yoki polga yotqizib qo'yilgan yakkacho'p qo'llaniladi. (14-rasm)

Mashg'ulot oldidan yakkacho'pning qanchalik gorizontal va mahkam o'rnatilganligi tekshirib ko'rildi. Uning sirtiga ayniqsa katta e'tibor beriladi (magneziyadan yoki kanifoldan tozalanadi).

Batut – ramaga rezina amortizator bilan tortib bog'langan yuqoriga itqituvchi gorizontal to'r.

Sakrash uchun tirgovuchlar kvadrat taxta kesimlaridan iborat bo'ladi. Ularning balandligi 2,5 m. plankaning (tizimchaning) balandligi tirgovuchlar muftasidagi «panja» lar (turtib chiqqan joylar) yordamida o'rnatiladi.

Turkichlar (stoyalki) paralel o'rnatilgan yog'ochlar bo'lib, past tirgovuchlarga (yoki har qaysisi alohida tirgovuchga) yaxshilab mahkamlangan bo'ladi.

Pastlikka sakrash maydonchasi (o'lchami 45x50 sm.) ilgaklar yordamida gimnastika devorchasiga o'rnatiladi.

Musobaqa o'tkazishga mo'ljallangan gimnastika sport anjomlarining shakli, o'lchamlari, egiluvchanligi va polga mahkamlanadigan joylarning qaerda bo'lishi qoidalarda belgilab qo'yilgan me'yorlarga mos bo'lishi kerak. Umumta'lim maktablaridagi, quyi jamoalardagi ommaviy (tasniflanmagan) musobaqalarda avval chiqqan sport anjomlari ishlatsilsa ham bo'ladi, lekin ular buzilmagan, mustahkam bo'lishi talab etiladi.

KO'P KOMPLEKTLI GIMNASTIKA ASBOBLARI.

Bunday asboblarning quyidagi talablarga javob beradigan bo'lishi kerak:

- a) jihoz jamoa bo'lib mashq bajarishga imkon beradigan bo'lishi;
- b) jihoz o'lchamlari shug'ullanuvchilarining yosh xususiyatlariga mos bo'lishi;
- v) sport anjomlari sodda yasaladigan, ishonchli, o'rnatishga qulay bo'lishi kerak.

1. Bolalarning universal gimnastika asbobining ishlataladigan qismiga iloflangan, los arqon.
2. Uzun yoki ko‘p komplektli yakka xoda tirdgovuchlarga o‘rnatib qo‘yilgan bir qancha temir tayoqlardan iborat bo‘lib, istalgan balandlikda o‘rnatsa bo‘ladi.
3. Past yoki balandligi har xil, uzun juft xodalar tirdgovuchlarga o‘rnatilgan bo‘ladi.
4. Uzun gimnastika oti. Charm yoki dermantin qoplangan yog‘och karkasdan iborat bo‘ladi.
5. Ko‘p komplektli halqlar.
6. Tayanib sakrash moslamalari.

GIMNASTIKA ANJOMLARI

To‘plar – Diametri 190 mm., og‘irligi 420 gr. yuqori sifatli PVX dan tayyorlangan. (15-rasm).

Gardish – diametri 85-90 sm., sintetik plastmassadan tayyorlangan. Har xil rangda bo‘ladi. (16-rasm).

Cho‘qmoq – butunlay yog‘ochdan yasaladi yoki temir o‘zakdan bir uchiga tennis koptokchasi, ikkinchi uchiga esa yog‘och kallak kiydirib yasaladi. Uning uzunligi 40-50 sm., yog‘och cho‘qmorning og‘irligi 150 gr., bosh qismining diametri 30 mm., plastmassa, rezina kauchukdan tayyorlanadi (17-rasm).

Gimnastika tasmasi (lenta) – og‘irligi 35 gr., eni 4-6 sm., tayoqcha uzunligi karabin bilan 50-60 sm., tasma uzunligi 6 m., tasmaning birinchi 1 metri ikki qavat bo‘ladi. Tasma tabiiy ipakdan tayyorlanib, uning tayoqchasi yog‘och yoki plastmassadan tayyorlanadi. Tayoqcha shakli silindrishimon bo‘ladi. (18-rasm).

Gimnastika tayoqchasi – mashg‘ulotlarda uzunligi kattalar uchun 100 sm., bolalar uchun 90 sm., diametri 25-30 mm. bo‘lgan gimnastika tayoqchalaridan foydalaniladi.

Gimnastika arqonchasi – uzunligi 300 sm., diametri 0,9 mm., turli ranglarda bo‘ladi. (19-rasm).

To‘ldirma to‘plar – ichiga qiyqim, yung yoki boshqa materiallar zichlab tiqilgan charm yoki sun’iy charm qoplamadan iborat. Uning diametri 31-40 sm., og‘irligi 1-5 kg. bo‘ladi.


Arg‘amchi – chizimchadan (los arqondan) yoki rezina iborat bo‘lib, qisqasi 2-3 m, uzuni 4-5 m. bo‘ladi.

Gantel – shakli ham og‘irligi ham har xil bo‘ladi. Eng qulayi og‘irligi 3-8 kg. keladigan sharsimon gantellar hisoblanadi.

Uloqtirish shiti o‘chhami 100x100 sm. bo‘lib, gimnastika devorchasiga ilgaklar bilan mustahkamlanadi. Shitning markazi «olma» shaklida belgilangach, diametri 18, 40, 60 va 80 sm.li doiralar ajratiladi. Doiralar eni 1 sm. oq moy bo‘yoq bilan chiziladi.


Badiiy gimnastika anjomlari

To‘plar




15-rasm

Gardishlar



16-rasm

Gimnastika cho‘qmog‘i



17-rasm

Gimnastika tasması



18-rasm

Gimnastika arqonchasi



19-rasm

Himoya kamari (lonja) – qo‘lda ushlab va osib qo‘yib qo‘llaniladi. Osib qo‘yiladiganida bitta o‘rama sim arqon bo‘ladi.

Oplama – sport anjomlarida (yakka xodada, halqlar va boshqalar) mashq bajarayotganda kaftlarni ehtiyyotlaydigan maxsus moslama.

Hakamlar ko‘rsatkichi – mashq qanday bajarilganligiga qo‘yilgan bahoni ko‘rsatadigan maxsus moslama: a) qo‘l ko‘rsatkich; b) shtativga o‘rnatilgan baho ko‘rsatadigan qurilma. Umumta’lim mакtablarida shu maqsadda ba’zan o‘quvchilar daftari varaqlarigadan 100 gacha (butun va kasr) sonlar yozilgan raqamlardan foydalaniлади.

1.5. GIMNASTIKA MAYDONCHASI.

Gimnastika maydonchasi – gimnastik mashg‘ulotlari o‘tkaziladigan maxsus jihozlanib, ko‘kalamzorlashtirilgan yer uchatkasi. Maydonchaning o‘lchamlari $40 \times 26\text{ m}^*$. mакtab o‘quvchilari bilan mashg‘ulot o‘tkaziladigan maydoncha kichikroq ($35 \times 25\text{ m}$) bo‘lishi ham mumkin. Bunday maydonchani mакtab uchastkasida, stadionda, istirohat bog‘ida yoki turar joylarda shug‘ullanuvchilar o‘z kuchi bilan jihozlab olsalar ham bo‘ladi.

Maydonchada gimnastika shaharchasi quriladi. Shaharchada, odatda barcha asosiy sport anjomlari, ayniqsa osib qo‘yiladigan va mustahкам o‘rnatilgan jihozlarni, bitta majmua qilib birlashtirilgan loyihadan iborat bo‘ladi. Bir uchi erga ko‘milgan, balandligi $4,5\text{-}6,0\text{ m}$, yog‘och ustunga

yoki temir tirdgovuchlarga mahkamlab qo'yilgan gorizontal to'sinlarga halqalar, arqonlar, langarcho'plar, gimnastika devorchalari, past va baland yakka xodalar va boshqalar o'rnatib qo'yiladi. Boshqa (ko'chma) sport anjomlari maydonchaga yuqoridagi tavsiyalarni hisobga olib o'rnatiladi.

Sakrash uchun va jihozlardan sakrab erga tushish uchun o'lchami ko'pincha 2x3 m. keladigan chuqur kovlab, uning $\frac{3}{4}$ qismiga toza qum aralashtirilgan qipiqlar solib qo'yiladi. Shuningdek yurish va yugurish yo'lkasi, ko'chma jihozlar, ashyolar, yog'ochlar, ko'prikhchalar vahokazolar saqlanadigan shiypon yoki xona hamda muzika asboblari, dam oladigan o'rindiqlar saqlanadigan shiypon ham bo'lishi darkor.

Bolalar gimnastika maydonchasida esa turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan sport anjomlari ko'proq bo'lishi, ular ichida tirmashib chiqish va oshib o'tish, muvozanat saqlash mashqlar, turli o'yin va estafetalar uchun kerakli jihozlar ham bo'lishi kerak.

Gimnastika maydonchasida guruh bo'lib umumrivojlantiruvchi mashqlar, erkin mashqlar va boshqa xil mashqlar bajaradigan joy bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Maydoncha bu qismining o'lchami erkin mashq bajariladigan polosdan kichik bo'lmasligi, qum-tuproqli yoki yalang er bo'lishi kerak, chunki o't bosgan joyda yomg'irdan so'ng, yoki shudring tushgandan keyin er sirpanchiq bo'lib qolganligidan shug'ullanishga qiyinchilik tug'diradi.

Gimnastika shaharchasi qaerda (shahar, qishloqlarda, sport sog'lomlashtirish oromgohlarida, o'quvchilar oromgohlarida) joylashganligiga qarab, unda zovur, handaq, uyuqlar va shu singari ayrim tabiiy va sun'iy to'siqlar bo'lishi mumkin. Maydonchaga yaqin joyda toza suvli cho'miladigan havza bo'lishi zarur. Maydoncha yaqiniga shug'ullanuvchilar dam olishi uchun o'rindiqlar qo'yiladi.

Toza havoda gimnastika bilan shug'ullanishning gigienik ahamiyati katta ekanligini hisobga olib, maktablarda jismoniy tarbiya darslarini, «Algomish» va «Barchinoy» me'yorlarini topshirishga tayyorgarlik va boshqa mashg'ulotlarni iloji boricha ochiq maydonlarda o'tkazishga intilish darkor.

ZALLAR VA JIHOZLARDAN FOYDALANISH QOIDALARI.

Zal va jihozlarni ehtiyyot qilish, ulardan unumli foydalananish maqsadida quyidagi qoidalarga rioya qilishlari:

1. Jihoz va ashyolarni ehtiyot qilishlari, ularni mashg‘ulotga o‘quv bilan tayyorlash va keyin yig‘ib qo‘yishlari, polga zarar etkazmaslik uchun sport anjomlarini maxsus aravachalarda tashishlari.

2. Magneziyani ehtiyotlab ishlatishlari, mashg‘ulot tugagandan keyin shug‘ullanuvchilar yakka xodaning temir tayog‘ini, juft xodalarning yog‘ochlarini, halqalarni, otning tutqichlarini magneziyadan tozalab, sochiq bilan, to‘saklarni esa ho‘l latta bilan artib qo‘yishlari.

3. Jihoz va ashyolarni maxsus xonalar yoki tahmonlarda (isitish asboblaridan uzoqroqda) saqlashlari.

4. Zalni har kuni supirib-sidirishlari, pol, devor, deraza tokchalari, eshik va hokazolarni issiq suv bilan yuvishlari, yumshoq anjomlarni akrobatika poyondozi, erkin mashqlar polosi va boshqalarni chang yutgich bilan muntazam tozalab turishlari.

5. Mashg‘ulotlar orasidagi tanaffuslarda polni ho‘l latta bilan artib, zalni shamollatishlari shart.

Zalga kiraverishda quyidagi:

a) zalda faqat gimnastika kostyumi va shifpakda yurish;

b) mashg‘ulot vaqtida o‘qituvchi (murabbiy) ko‘rsatmalarini aniq bajarish, o‘rtoqlariga ko‘maklashish;

v) xavfsizlik qoidalarini, o‘zini-o‘zi himoya qilish usullarini bilib olish;

g) zalga kirishda ham, undan chiqishda ham faqat o‘qituvchidan ijozat so‘rash singari eslatuvchi ko‘rsatmani osib qo‘yish kerak.

O‘quv jarayonining samarali bo‘lishi uchun sport anjomlarini havfsizlik choralariga rioya qilgan holda joylashtirish kerak. Tanishishga vaqt sarflamaslik uchun jihozlarni ular saqlanadigan joyga yaqinroq o‘rnatgan ma’qul. O‘quv bo‘linmalarini (kichik guruahlarni) bir tur mashg‘ulotdan ikkinchisiga eng yaqin yo‘l bilan tez o‘ta oladigan, ammo bunda boshqalarga xalaqit bermaydigan qilib joylashtirish kerak.

O‘QUV JARAYONINI O‘TKAZISH JOYIGA VA SPORT JIHOZLARIGA BO‘LGAN SANITARIYA VA HAVFSIZLIK TALABLAR.

Yopiq sport maydonlariga qo‘yiladigan talablar

1. Ummumta’lim maktablari sport zallarining xonalari, ulardagi jihozlarning joylashuvi, qurilish me’yorlari va qoidalari hamda elektr va yong‘in havfsizligi qoidalari talablariga javob berishi lozim.

2. Sport zalida mashg‘ulot davomida har bir o‘quvchiga 0,7 m² hisobida joy belgilanishi kerak. Me'yorda belgilanganidan ortiqcha o‘quvchi bilan zalni to‘ldirishga ruxsat etilmaydi.

3. Sport zalining poli teshiksiz va gorizontal ravon va tekis bo‘lishi hamda ustki qismi emulsiyali yoki silikatli bo‘yoq bilan bo‘yalgan bo‘lishi lozim.

4. Mashg‘ulot boshlanishidan avval pollar yuvishdan deformatsiyalanmagan, quruq va toza holatda bo‘lishiga erishish lozim.

5. Sport zallari polining har 1 m².ga tushadigan 400 kg.dan oshmasligi kerak.

6. Sport zali poliga me'yoriy xujjalarga asosan sakrab tushish joylarini qo‘sishimcha jihozlashga ruxsat beriladi.

7. Zalning devorlari tekis, sillik ochik rangda buyalgan, namlab tozalash imkoniyati bulishi kerak. To‘p devorga tekkanda bo‘yoqlar to‘kilib tushmasligi va iflos qilmasligi kerak.

8. Zal devorlarining 1,8 m.gacha balandlikda hech qanday bo‘rtib chiqqan joy bo‘lmasligi, agarda zal konstruksiyasida bor bo‘lsa shu balandlikda bir tekisda fanera yoki boshka vositalar bilan tekislanshi lozim. Isitish vositalarining ham bo‘rtib chiqqan joylari to‘r yoki himoyalovchi vositalar bilan to‘sish lozim bo‘ladi.

9. Sport zali va jihozlar turadigan bog‘lovchi o‘tish joylari balandligi va eni 2 metr kam bo‘lmasligi va ostonasiz bo‘lishi kerak.

10. Romlar zalning yon (uzun) tomonida, oynalarida to‘p zarbidan himoyalovchi to‘silalar bo‘lishi darkor romlar zalning polida turib ochiladigan hamda quyoshdan himoyalovchi vositalari bo‘lishi lozim.

11. Zal tomining ichki qismi to‘p zarbidan to‘kilmaydigan bo‘yoqda bo‘yalishi lozim.

12. Maktab sport zallarining shift qismi yonishi qiyin, olovga bardoshliligi 0,75 ch.dan kam bo‘lmasligi kerak. Sport zalini isitish maqsadida torf, yog‘och qirindilari va boshqa tez yonuvchi vositalardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

13. Sport zali tomining chordoq qismi ozoda saqlanishi va qulflangan, kaliti kunning xohlagan vaqtida olish imkoniyati bo‘lgan ma’lum joyda saqlanishi kerak. Chordoqda sport jihozlarini va o‘quv qurollarini saqlashga ruxsat etilmaydi.

14. Sport zalining yoritilishi keltirilgan jadval talablariga mos bo‘lishi kerak.

2-jadval.

Nº	Sport turining nomi	Eng kam yorug'ligi (lk)	Yorug'likning me'yoriy tekisligi va hududi	Izoh
1.	Sport gimnastikasi, badiiy gimnastika, kurash, akrobatika.	200	Gorizontalpol yuzasi, tusham, pomost yuzasi darajasida	

15. Zalning yorug'lik manbasi sifatida lyuminessentli yoritkichlardan yoki lampali yoritkichlardan 300 dan kam bo'lmagan himoya vositalaridan foydalanish mumkin.

16. Yoritish vositalari elektrotexnik xodimlar tomonidan bir oyda kamida 2 marotaba tozalab turilishi kerak.

17. Yopiq sport inshootlarida havo tozalash (ventilyatsiya) oddiy oynalarni ochib shamollatish yo'li bilan hamda maxsus tortuvchi ventilyatsion vositalar yordamida amalga oshiriladi. Bunda vosita doimiy texnik va sanitark-gigienik qurikdan o'tkazilishi kerak. qurik natijalarini maxsus jurnalga qayd etib boriladi.

18. Ventilyatsiya va isitish vositalari jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bir kishiga $80 \text{ m}^3/\text{s}$ havo almashinuvini, 14°C kam bo'lmagan issiqlik bilan ta'minlash kerak.

19. Yoritkichlarni boshqarish yoritish vositasini qisman uchirish imkoniyatini ta'minlashi lozim. Bu maqsadda sport zalining elektr tarmog'i uchirgich (rubilnik) yoki ikki qutbli uchirgich bilan jihozlanishi kerak. Uchirgichlar zinapoyada yoki yo'lakchada joylashtirilishi va boshqarilishi kerak.

20. Sport zalini mexanizatsion tozalash uchun zalning qarama-qarshi burchaklarida kamida 2 ta shtepsellik tikin (rozetka) nazarda tutilishi kerak. Barcha tikinlarda saqllovchi (predoxranitel)lar bo'lishi kerak.

21. Maktab yoshidagi bolalar uchun kiyinish joyi har bir kishiga 0,18 metrdan² kam bo'lmasi kerak.

22. Kiyinish xonasidagi shkaflar bir qavatga ko'yiladi. O'tirgich va shkaf orasidagi o'tish (yo'lagi) joyi 1,5 metrdan kam bo'lmasi kerak. Yo'laklarga oyna yoki shunga o'xshash yo'lakni tusib qo'yuvchi jihoz va boshqa narsalar kuyish mumkin emas.

23. Yuvinish xonalarining har birida alohida issik va sovuq suvni aralashtiruvchi (sm.esitel), oyoq tagiga qo‘yiladigan tushama xamda narsalar qo‘yiladigan tokcha bo‘lishi kerak.

24. Ochiq yuvinish xonalarining o‘lchami $0,9 \times 0,9$ metrdan kam bo‘lmasligi kerak.

26. Yuvinish xonalarining qarama-qarshi devor bilan oraliq masofasi 1,3 metr, yuvinish kabinetlari bilan orasi 1,5 metrdan kam bo‘lmasligi kerak.

27. Bolalar kiyinish xonasida harorat 20°S , yuvinish xonasida 25°S dan kam bo‘lmasligi, havo almashinuvi o‘lchami kiyinish xonasida-1,5 yuvinish xonasida 5,0 bo‘lishi kerak.

28. Yordamchi xonalarda faqatgina sun’iy yoritgichlar bo‘lishi, bunda hojatxonalarda yorug‘lik gorizontal yuzada poldan 0,8 m. balandlikda va lyuminessent lampada 75 lk hamda oddiy lampada 30 lk dan kam bo‘lmasligi kerak.

29. Yopiq sport inshootlari favqulodda (avariyaviy) yoritish vositalari bilan jihozlanishi kerak. Bunda ushbu vositalar asosiy yo‘lakchalar va zinapoyalar polini kamida 0,5 lk yoritilishini ta’minlashi kerak va bu tizim alohida bo‘lishi yoki favqulodda vaziyatlarda avtomat tarzda boshqa manbagga ulanadigan bo‘lishi kerak.

